

«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
YAGONA AKSIYADORINING
QARORIDAN KO‘CHIRMA

2023 yil «25» avgust

№ 08/1

Toshkent sh.

Bank ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish to‘g‘risida

...
...
...

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida 2023 yil 18 avgustda R0967-2-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining “Qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan chiqarilgan nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘m bo‘lgan 100 000 000 (Bir yuz million) dona umumiy qiymati 100 000 000 000 (Bir yuz milliard) so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar Yagona aksiyadorga belgilangan tartibda joylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasiga muvofiq jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko‘rsatilgan, e‘lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerakligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga muvofiq jamiyatning barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar yagona aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozimligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2023 yil 18 yanvardagi O‘RQ-814-son Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, “Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Ustavi va ““Smart bank” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom” talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

qaror qiladi:

1. Bankning Ustaviga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar matni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bankning Ustaviga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar matni amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatdan o'tkazilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash Bank Boshqaruviga hamda ijrosini nazorat qilish Bank Kuzatuv kengashiga zimmasiga yuklatilsin.

Yagona aksiyador nomidan,

“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

Ko'chirma asligi to'g'ri:

